

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat chet tillar instituti
akademik litseyi direktori

_____ **D.Islomov**

“__” _____ 2025-yil



SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
AKADEMIK LITSEY IQTIDORLI O‘QUVCHILARI UCHUN
**“AKADEMIK LITSEYIMIZ IFTIXORI” HAMDA “REKTOR
STIPENDIYASI”NI TAYINLASH TARTIBI TO‘G‘RISIDA**

NIZOM

*Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyining 2025-yil
29-noyabrdagi 4-sonli pedagogik kengashida tasdiqlangan.*

Samarqand -2025-yil

SamDChTI akademik litseyining iqtidorli o'quvchilariga

“Akademik litseyimiz iftixori” hamda “Rektor stipendiyasi”ni
tayinlash tartibi to'g'risida

NIZOM

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda qabul qilingan “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4910-son qarori bilan tasdiqlangan “Iqtidorli yoshlarni saralab olish va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi”ning 2-bandida belgilangan vazifalar ijrosi, 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-87-son Farmonining 2-ilovasi, 58-bandi hamda litseyning “2024/2026-yillarda Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litsey faoliyatini tashkil etish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha “YO'L XARITASI”ning 16.3-bandi talabiga ko'ra iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, akademik litsey bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish ko'rsatkichlarini oshirish pirovardida munosib taqdirlash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda qabul qilingan “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4910-sonli qarorlariga asosan Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi uchun tatbiq etiladi.

2. **“Akademik litseyimiz iftixori”** stipendiyasi litseyning barcha fanlardan eng yuqori o'zlashtirish ko'satkichlariga ega bo'lgan 10 nafar o'quvchiga davlat byudjetidan akademik litseylarga ajratilgan mablag'lar hisobidan har semestrda bir marotaba bazaviy hisoblashning 2 baravari miqdorida akademik litsey pedagogik kengashi qarori asosida beriladi.

3. **“Rektor stipendiyasi”** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda qabul qilingan “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4910-sonli qarori hamda litseyning “2024/2026-yillarda Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litsey faoliyatini tashkil etish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha “YO'L XARITASI”ning 16.3-bandiga asosan, Samarqand davlat chet tillar institutining byudjetdan tashqari mablag'lari (to'lov-kontrakt asosida o'qitish uchun tushumlarning faqat to'lov-kontrakt miqdorining oshirilgan qismi) hisobidan yil yakuni bo'yicha bir marotaba bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida Samarqand davlat chet tillar instituti kengashi hamda akademik litsey pedagogik kengashi qarori asosida beriladi.

2-bob. “Akademik litseyimiz iftixori” va “Rektor stipendiyasi” tanlovini o‘tkazish va tayinlash tartibi

1. Stipendiyaga nomzodlarni aniqlash bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda komissiya deb yuritiladi) tarkibi hamda stipendiyaga nomzodlarni baholash mezonlari tartibi akademik litseyning pedagogik kengashi qarori asosida ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

2. Komissiya tarkibi akademik litseyning rahbar xodimlari, tajribali professor-o‘qituvchilari, kafedra mudirlari, uslubchilar, bo‘lim boshliqlari, kasaba uyushmasi, xotin-qizlar qo‘mitasi, yoshlar ittifoqi va boshqa jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat holatda tuziladi.

Zarur hollarda oliy ta‘lim muassasasining tajribali professor-o‘qituvchilari, soha mutaxassislari va mahalla fuqarolar yig‘ini faollari jalb etilishi mumkin.

3. Akademik litseyda o‘qitilayotgan barcha fanlarni **“a’lo”** baholarga o‘zlashtirayotgan, iqtidorli o‘quvchilar orasida, ular tomonidan taqdim etilgan yig‘ma jildlar komissiya ishchi guruhi tomonidan ko‘rib chiqiladi va baholash mezonlari asosida baholanadi.

4. Komissiya nomzodlarni adolatli, oshkoralik tamoyillari asosida tanlab olishda hamda stipendiya sohiblarini xolis va ochiq tanlanishi uchun javobgardir:

a) **“Akademik litseyimiz iftixori”** stipendiyasi barcha fanlardan a’lo baholar olgan iqtidorli o‘quvchilar orasidan 10 nafar tanlab olinadi va pedagogik kengash qarori asosida tasdiqlanadi.

Bunda a’lo baholarga o‘qigan iqtidorli o‘quvchilar soni 10 nafardan ortiq bo‘lganda quyidagilarga ustivorlik beriladi:

- viloyat, respublika va xalqaro miqyosdagi fan olimpiadalarida yuqori natijalar qayd etganligi;

- viloyat, respublika darajadagi turli fan, sport, ma’naviy-ma’rifiy tanlovlarda ishtiroki;

- chet tillar hamda umumta’lim fanlardan xalqaro yoki milliy sertifikatga ega bo‘lishi;

- jamoat ishlarida faolligi;

- ijtimoiy himoyaga muxtojligi “Yoshlar daftari”, “Temir daftar”ga kiritilganligi.

b) **“Akademik litseyimiz iftixori”** stipendiyasini tayinlash to‘g‘risida ta‘lim muassasasi rahbarining buyrug‘i har semestr yakunlanishidan 10 (o‘n) kun keyin qabul qilinadi.

c) akademik litsey o‘quv yili semestrlari yakuni bo‘yicha **“Akademik litseyimiz iftixori”** stipendiyasi g‘oliblari yil yakuni bo‘yicha **“Rektor stipendiyasi”** tanlovida ishtirok etish huquqiga ega.

5. **“Rektor stipendiyasi”** oluvchi o‘quvchilar soni komissiya tomonidan o‘tkazilgan tanlov natijalariga ko‘ra akademik litsey pedagogik kengashida muhokamadan o‘tkazilgandan so‘ng Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy kengashga tavsiya etiladi va tegishli tartibda belgilanadi.

“Rektor stipendiyasi” ni tayinlash to‘g‘risida ta‘lim muassasasi rahbarining buyrug‘i har yili yil yakuni dekabr oyida qabul qilinadi, yanvar oyi semestr yakuniga

ko'ra o'quvchining bir yil davdagi erishgan yutuqlari inobatga olinib tanlov o'tkaziladi.

Tanlovda o'quv reja bo'yicha o'tilgan fanlardan yakuniy baholarining kamida 96 foizi "a'lo" va qolgan fanlardan "yaxshi" bo'lgan, namunali xulqqa ega bo'lgan, jamoat ishlarida faol ishtirok etgan o'quvchilar ishtirok etish huquqiga ega.

Stipendiya beriladigan o'quvchilar soni tanlov natijalariga ko'ra akademik litsey pedagogik kengashi tomonidan, talabgorlarning o'quv, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy holatlarini muhokama qilish asosida amalga oshiradi.

Qabul qilingan qaror asosida nomzod tegishli tartibda institut kengashiga stipendiya tayinlash uchun tavsiya qilinadi.

Institut kengashi iqtidorli o'quvchilarga stipendiyalarini tayinlash haqidagi tavsiyanomalarni bir o'quv yilida bir marta ko'rib chiqadi.

"Rektor stipendiyasi"ni tayinlash institut kengashining qarori o'quvchilarga stipendiyalarni tayinlash va to'lash haqidagi buyruqlarni rasmiylashtirishi uchun asos bo'ladi.

3-bob. "Stipendiya" tanloviga taqdim etiladigan hujjatlar

1. Tanlov akademik litseyda o'qitilayotgan barcha fanlarni o'quv yili semestri hamda bir yildagi ikki semestrlarini **"a'lo"** baholarga o'zlashtirayotgan, iqtidorli o'quvchilar orasida tashkil etiladi.

2. Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- akademik litsey ustavining 7-bob, 58-bandi talablarini bajargan, kafedra mudiri, bo'lim boshlig'i va guruh rahbari birgalikda imzolagan tavsiyanoma;

- viloyat, respublika va xalqaro miqyosdagi fan olimpiadalarida erishgan yutuqlarini tasdiqlovchi hujjatlar;

- viloyat, respublika darajadagi turli fan, sport, ma'naviy-ma'rifiy tanlovlarda erishgan yutuqlarini tasdiqlovchi hujjatlar;

- **CEFR, IELTS, TOPIC, HSK** va boshqa xalqaro hamda milliy til bilish ko'nikmasini belgilovchi yohud umumta'lim fanlarni bilish darajasini belgilovchi milliy sertifikatlar;

- ilmiy (ijodiy), seminar, konferensiyalar, ma'naviy-ma'rifiy va jamoat ishlarda faol ishtirok etishi;

- ijtimoiy himoyaga muxtojligi **"Yoshlar daftari"**, **"Temir daftar"**ga kiritilganligini tasdiqlovchi hujjat.

Barcha hujjatlar jildga tikilgan yoki papkaga joylangan holda taqdim etiladi. Muqovada talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi, yo'nalishi, kursi, guruhi ko'rsatiladi.

4-bob. "Stipendiya" tanlovini o'tkazish mezonlari

6. **"Akademik litseymiz iftixori"** hamda **"Rektor stipendiyasi"** tanlovi quyidagi baholash mezonlari bo'yicha o'tkaziladi:

a) Xalqaro, respublika, viloyat miqyosdagi fan olimpiadalarida g'olibligi uchun:

1- o'rin Xalqaro (500 ball), respublika (400 ball), viloyat (300 ball)

2- o'rin Xalqaro (400 ball), respublika (300 ball), viloyat (200 ball)

3- o'rin Xalqaro (300 ball), respublika (200 ball), viloyat (100 ball)

b) Xalqaro, respublika, viloyat darajadagi turli fan, sport, ma'naviy-ma'rifiy tanlovlarda g'olibligi uchun:

1- o'rin Xalqaro (300 ball), respublika (200 ball), viloyat (100 ball)

2- o'rin Xalqaro (200 ball), respublika (100 ball), viloyat (80 ball)

3- o'rin Xalqaro (100 ball), respublika (80 ball), viloyat (50 ball)

c) Joriy o'quv yilida 1-bosqich (ta'lim muassasasi miqyosida) olimpiada g'olibligi uchun:

1-o'rin g'olibligini qo'lga kiritganligi uchun - 10 ball,

2- o'rin g'olibligini qo'lga kiritganligi uchun - 7 ball,

3- o'rin g'olibligini qo'lga kiritganligi uchun - 5-ball

d) Xorijiy tilni bilish darajasi bo'yicha milliy sertifikatni qo'lga kiritganligi uchun:

"B1" daraja (*har bir fan uchun*) - 10 ball

"B2" daraja (*har bir fan uchun*) - 20 ball

"C1" daraja (*har bir fan uchun*) - 30 ball

e) Umumta'lim fanlarini bilish darajasi bo'yicha milliy sertifikatni qo'lga kiritganligi uchun:

"C, C+" daraja (*har bir fan uchun*) - 10 ball

"B" daraja (*har bir fan uchun*) - 15 ball

"B+" daraja (*har bir fan uchun*) - 20 ball

"A, A+" daraja (*har bir fan uchun*) - 30 ball

f) Xalqaro til bilish darajasi bo'yicha sertifikatni qo'lga kiritganligi uchun:

4,5-5 balli daraja (*har bir xorijiy til uchun*) uchun - 10 ball

5,5 balli daraja (*har bir xorijiy til uchun*) uchun - 20 ball

6-6,5 balli daraja (*har bir xorijiy til uchun*) uchun - 25 ball

7 va undan yuqori balli daraja (*har bir xorijiy til uchun*) uchun - 30 ball

g) Joriy o'quv yilida o'tkazilgan (bir semestr) (bir yil davrdagi ikki semestr) barcha ishtirok etishi uchun ochiq bo'lgan turli xil ko'rik-tanlovlarda (kamida akademik litsey doirasidagi) har bir g'olibligi uchun:

1-o'rin g'olibligini qo'lga kiritganligi uchun – 5 ball

2- o'rin g'olibligini qo'lga kiritganligi uchun - 3 ball

3- o'rin g'olibligini qo'lga kiritganligi uchun - 2-ball

7. Ishchi guruh (komissiya) tanlov natijalari xulosasiga ko'ra akademik litsey pedagogik kengashiga stipendiyaga nomzodlar ro'yxatini tavsiya etadi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

1. Tanlov to'g'risidagi ma'lumotlar va uning natijalari akademik litseyning veb-saytda hamda ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e'lon qilinadi.

2. O'quvchilarning stipendiyalarini tayinlash bo'yicha ariza va shikoyatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.